


NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM VA DAM OLISH SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Namangan viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar soni 1 tani tashkil qilib, 2017 yilda ular tomonidan 850 nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko'rsatildi.

2017 yilda Namangan viloyatiga 7,4 ming nafar chet el fuqarolari tashrif buyurgan bo'lib, ulardan 4,5 ming nafari MDH davlatlarining fuqarolari tashkil etadi. Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 116,3 ming nafarni tashkil qilib, asosiy qismini Namangan viloyati fuqarolari – 53,3 ming nafar tashkil qildi. Bu esa o'z navbatida 96,6 foizni tashkil qildi.

1-rasm

2017 yilda Namangan viloyatida xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilarning MDH, xorijiy va Namangan viloyati fuqarolari o'rtasidagi ulushi, foizda



2017 yilda Namangan viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar tomonidan 22 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, uning qiymati 210,1 mln. so'mni tashkil qildi.

1-jadval


2016 yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati

	Soni, birlik	Qiymati, mln.so'm
Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari jami	22	210,1
Ulardan bevosita aholiga	22	210,1
shu jumladan:		
O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	22	210,1
Chet el mamlakatlari bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	-	-
O'zbekiston xududi bo'yicha MDH fuqarolariga	-	-
O'zbekiston xududi bo'yicha boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga	-	-

2017 yilda sayyohlik yo'llanmalarining 100,0 foizi (22 dona) bevosita aholi tomonidan sotib olingan.

2-rasm

2017 yilda Namangan viloyatida jamoaviy joylashtirish vositalari



2017 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 24 tani tashkil qildi. Ulardan, 12,5 % foizi bir yulduzli, 25% foizi uch yulduzli va 62,5% foizi toifaga ega bo'lmagan mehmonxonalaridir.

3-rasm

2017 yilda mehmonxonalarining toifasi (yulduzi) bo'yicha faoliyati

